

## **INNOVASION YONDOSHUV ASOSIDA UROLOGIK FANLARNI O'QITISHNING MAZMUNI, MAVJUD MUAMMOLARI**

*Sayfedinov Sanjarbek Ikramitdin o'g'li*

*Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi*

*Gmail: [sayfedinov.sanjarbek@mail.ru](mailto:sayfedinov.sanjarbek@mail.ru)*

**Annotasiya:** ushbu maqolada tibbiyot oliygohi urologiya yo'nalishi talabalari uchun urologiya fani o'quv jarayoniga innovatsion va simulyatsion ta'lim texnologiyalari qo'llashni takomillashtirishning muammolari va dolzarbligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kadr, kasb, tayyorlash, ta'lim, jarayon, takomillashtirish, tibbiyot oliygohi, talabalari, urologiya fani, o'quv jarayoni, innovasion, simulyasion, texnologiya.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovasion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.KanKalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovasion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovasion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovasiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondoshuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondoshuv (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovasiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tadbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovasiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni

izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovasiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondoshuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovasiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Individual faoliyatli yondoshuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovasiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

4 insonparvarlik yondoshuvi (ushbu yondoshuv pedagogik jaraënda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondoshuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

AQSh, Evropa, Osiyo va Rossiya kabi rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayangan holada tibbiy ta'limni rivojlantirishda innovasion yondoshuv asosida simulyasion ta'lim tizimini joriy etish aholiga yuqori malakali xizmat ko'rsatishda mustahkam amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda amaliyot davomida mashq qilish klinikada an'anaviy amaliy ta'limlarni almashtira olmaydi. Ammo bir qator amaliy ko'nikma va malakalar bemorning yotog'ida yoki operatsiya stolida emas, balki klinikadan oldingi bosqichda, simulyasion o'quv markazida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq va samaralidir. Bunday ikki bosqichli modelning joriy etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

I.N.Chechina, S.A.Elnikova o'z qarashlarida "Talabalar simulyatsiya mashg'ulotlari davomida simulyatsion muhit ya'ni maydonda shug'ullanishida o'quv jarayoni

samaradorligi oshadi, mazkur muhitda talaba o'zining kelajakdagi amaliy faoliyatiga imkon qadar yaqin bo'lgan sharoit va vaziyatni his qiladi".

O.I.Sokolova fikriga ko'ra "Oliy ta'limning axborotlashtirilgan jarayoni -bu ta'lim va tarbiya hamda ilmiy bog'liqlikni ta'minlash borasida axborotlarni unumli qo'llash, tahlil qilish, saqlash va uzatilishini dasturiy,uslubiy vositalar yordamida samarali ta'minlovchi soha".

O.V.Alekseeva fikriga ko'ra "Simulyasiya muhiti real holatlarga imkon qadar yaqinlashtirilgan tibbiy faoliyatni namoyon qiluvchi va o'ziga xos tamoyillar asosida shakllantirilgan model".

M.D.Gorshkov qarashlarida "Simulyasion jarayon ta'lim berish davomida xavfsiz sharoitni yaratish orqali hayotiy hodisa va vaziyatlarga yaqinlashish bilan bir qatorda uzoq vaqtni talab qiluvchi muhokamalardan xoli bo'lgan, amaliy jihatdan bir qator qulayliklarga egadir".

Innovasion o'qitish metodlari va texnologiyalari

Oliy ta'lim muassasalarida urologiya fanlarini samarali o'qitish shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- muammoli ma'ruza;
- videoma'ruza, vebinarlar;
- binar ma'ruza;
- intensiv-interaktiv seminar;
- trening, videotrening;
- interfaol ekskursiya;
- On-line seminarlari;
- taqdimot, kichik guruhlardagi ish v.h.k.

Urologiya fanini o'qitish bo'yicha binar ma'ruzani ham o'rni beqiyos. Binar deyilganda so'zi lotinchadan olingan bo'lib, —qo'sh, —ikki degan ma'noda qo'llaniladi. Demak bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: professor - o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor

(maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoèn qiladi. Trening – trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir.

Urologiya bo'yicha muammoli-ma'ruzalarni talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali mavzu rejasidagi masalalarni baèn etish mumkin. Bu jaraènda urologiya yo'nalishi talabalar qo'yilgan muammoga echim izlaydilar va ma'ruzani puxta o'zlashtirgan holda muammoning echimini topishi zarur bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Учебник «Урология» под редакцией акад Н.А.Лопаткина. М.Медицина 1995г.
2. Пытель Ю.А.Золотарев И.И.Неотложная урология М.Медицина 1995 г.
3. Руководство по уролдогии в 3-х томах Под. Ред. Акад. Н.А. Лопаткина. М.Медицина 1998г.
4. Мартин И Резник, Эндрю К.Новик « Сектеры урологии» Невский диалект Санк-Петербург 1998 г.
5. J.Nordling T.Hald Доброкачественная гиперплазия простаты и симптомы нижнего мочевого тракта. Eur Urology update series 1997, 6, 54+60
6. Campbell`s urology Seventh Edition. Vol 1.2.3 1998 г.
7. Урология 2005. С.Х.Ал-Шукури. В.Н. Ткагул «Академия».
8. Урология Лопаткин. Н.А. 2004 г